XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2023 - yil 17 - yanvar VI-57-9-5-78-K/23 Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahri hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 16-avgustdagi PQ-353-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali boshlig‘i R. Nosirov va shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlar bo‘limi boshlig‘i U. Ochilovning axborotiga muvofiq, “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 16-avgustdagi PQ-353-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarorida ma’muriy-hududiy birlik sifatida qishloqlar va shaharchalar belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Zarafshon shahrining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali boshlig‘i R. Nosirov va shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i U. Ochilovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Zarafshon shahri hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining dastlabki natijalariga ko‘ra, umumiy perimetri 24889.2 metrni, jami yer maydoni 2582.094 gektarni tashkil qilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Jumladan:

Alisher Navoiy MFY hududining umumiy perimetri 5667.7 metr, umumiy maydoni 158.49 gektar;

Konchilar MFY hududining umumiy perimetri 9735.8 metr, umumiy maydoni 251.86 gektar;

O‘zbekiston MFY hududining umumiy perimetri 2864.7 metr, umumiy maydoni 28.29 gektar;

Oltin vodiy MFY hududining umumiy perimetri 10723.36 metr, umumiy maydoni 470.38 gektar;

Quruvchi MFY hududining umumiy perimetri 6620.7 metr, umumiy maydoni 131.84 gektar;

Istiqlol MFY hududining umumiy perimetri 7336.35 metr, umumiy maydoni 158.16 gektar;

Yoshlik MFY hududining umumiy perimetri 10723.2 metr, umumiy maydoni 22.18 gektar;

Tinchlik MFY hududining umumiy perimetri 6009.0 metr, umumiy maydoni 128.69 gektar;

Geolog MFY hududining umumiy perimetri 9302.49 metr, umumiy maydoni 228.18 gektar;

Bahor MFY hududining umumiy perimetri 6864.17 metr, umumiy maydoni 223.29 gektar;

Navro‘z MFY hududining umumiy perimetri 5890.51 metr, umumiy maydoni 89.24 gektar;

Yulduz MFY hududining umumiy perimetri 7806.03 metr, umumiy maydoni 18.44 gektar;

Yangi Zarafshon MFY hududining umumiy perimetri 9471.4 metr, umumiy maydoni 426.5 gektar;

Dovg‘iztov MFY hududining umumiy perimetri 31623.2 metr, umumiy maydoni 188.28 gektar;

Muruntov MFY hududining umumiy perimetri 6299.05 metr, umumiy maydoni 535.5 gektar;

4. 15 ta mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralarining belgilanganligi bo‘yicha xarita ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Qaror ijrosini ta’minlash shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X. Oripov va shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari O. Xakimov zimmasiga yuklansin.


Kengash raisi **N. Rahmanov**


Xalq deputatlari Zarafshon
shahar Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-57-9-5-78-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahar fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini belgilanganligi bo‘yicha
XARITASI

Zarafshon shahar sektorlar va mahallalar kesimida joylashuvi XARITASI

T/r	MFY nomi	Xona	Oila	Aholi
1	A.Navoiy	1722	2343	7728
2	Konchilar	1749	2150	7520
3	Murunlov	441	601	2122
4	O'zbekiston	1017	1215	4750
5	Oltin Vodiy	1019	1227	4801
6	Quruvchi	2110	2138	7748
7	Yangi Zarafshon	1023	1544	5851
8	Istiqlol	1270	1762	5883
9	Yoshlik	1025	1522	5178
10	Tinchlik	1715	2212	8123
11	Dovg'lotov	951	1012	3360
12	Geolog	2232	2185	7360
13	Bahor	1198	1427	5866
14	Nasrid'in	1838	2049	7282
15	Yulduz	1427	1557	7288





SHAHAR HOKIMI SEKTOR
SHAHAR PROKURORI SEKTOR
SHAHAR IIB SEKTOR
SHAHAR DSI SEKTOR